

**UDK: 632.937**

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SOYA NAVLARINING DON  
OG‘IRLIGI KO‘RSATKICHLARI**

***A.Xolikova***

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti b.f.f.d.(PhD)*

***A.S.Joldasova***

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi*

***O‘.A.Vahhobova***

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi*

[holiqova19811@mail.ru](mailto:holiqova19811@mail.ru)

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada takroriy ekinlarning tuproq unumdorligi uchun ahamiyati, foydali xususiyatlari va takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarida bir tup o‘simlikdagi umumiy don og‘irligi haqida ma’lumotlar berilgan. Daladagi asosiy ekin hosili o‘rib yig‘ib olinganidan keyin o‘rniga ikkinchi marta ekiladigan ekinlar, ekilgan yilining o‘zidayoq hosil beradi. Yerdan unumliroq foydalanishga va maydon birligidan ko‘proq miqdorda qishloq xo‘jaligi mahsuloti olishga imkon beradi. Kuzi iliq, uzoq davom etadigan sernam xududlarda va sug‘orma dehqonchilik mintaqalarida qo‘llanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *soya, takroriy ekin, mahalliy, xorijiy, hosil, dukkak, nav.*

**ANNOTATION.** *This article provides information on the importance of repeated crops for soil fertility, beneficial properties and total grain weight per plant in domestic and foreign soybean varieties planted as repeated crops. After the harvest of the main crop in the field, the crops that are planted a second time instead of it, give a harvest in the same year of planting. It allows to use the land more efficiently and get more agricultural products per unit of area. It is used in regions with warm, long-lasting rains and irrigated farming regions.*

**Key words:** *soybean, repeated crop, local, foreign, yield, legume, variety.*

**АННОТАЦИЯ.** В статье приведены сведения о значении повторных посевов для плодородия почвы, полезных свойств и общей массы зерна с растения у отечественных и зарубежных сортов сои, высеваемых в повторных посевах. После уборки основной культуры на поле культуры, которые сажают вместо нее второй раз, дают урожай в тот же год посадки. Это позволяет более эффективно использовать землю и получать больше сельскохозяйственной продукции с единицы площади. Его применяют в регионах с теплыми продолжительными дождями и в районах орошаемого земледелия.

**Ключевые слова:** соя, повторный урожай, местный, зарубежный, урожайность, бобовая культура, сорт.

**Kirish.** Dunyo miqyosida soya o'simligi oqsil uchun eng ko'p yetishtiriladigan ekin bo'lib, so'ngi yillarda soyadan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan talabning keskin ortishi tufayli ushbu o'simlik yetishtiriladigan maydonlar kengayib bormoqda. Shu o'rinda, kuzgi boshqoli don ekinlaridan bo'shagan yerlarga takroriy ekin sifatida soya navlarining turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan navlarini tanlab olish, ekish, morfoxo'jalik, fiziologik, biokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish, ko'paytirish, turli stress omillarga chidamli navlarni yaratish va turli ekologik hududlarda sinab ko'rish, ularning moslanuvchanlik mexanizmlarini va fiziologik asoslarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda[1.3.6.]. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda soyaning serhosil, oqsil miqdori yuqori bo'lgan navlarini ekish hamda hosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada respublika hududida soya o'simligi ekin maydonlari kengaydi va ushbu sohaga ixtisoslashgan yuzlab yangi fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Soya *Fabaceae (Leguminosae)* oilasi, *Papilionoideae* kenja oilasi va *Glycine* turiga kiradi. Bu nom dastlab K. Linney tomonidan shunday nomlanib, O'simliklar sistematikasi kitobining birinchi nashriga kiritilgan. Soya turli nomlar bilan tanilgan, jumladan, *G. hispida*, *G. soja* va *G. max.* Glitsin ning umumiy nomi yunoncha "gliks" (shirin) so'zidan olingan. K.Linney sakkizta *Glycine* turini

sanab o‘tdi, ularning barchasi keyinchalik boshqa avlodlarga ko‘chirildi, *G. javanica* bundan mustasno, bu nom 1966 yilgacha jinsda nom bo‘lib qoldi. *G. sojani* tasdiqlangan soyaning botanik nomi deb hisoblashgan, ammo Merrill tomonidan taklif qilingan *G. max* nomi haqiqiy nom sifatida qabul qilingan. *Glitsin*, ikkita kichik avlodga ega: *Soja* va *Glitsin*. Madaniy soya (*G. max*) va uning yovvoyi bir yillik qarindoshi *G. sojasi* soya turkumiga kiradi. *Glycine* kichik jinsi 16 yovvoyi ko‘p yillik turni o‘z ichiga oladi, asosan Avstraliyada uchraydi. Bu turlarning barchasi odatda  $2n = 40$  xromosomaga ega [2.5.].

**Tajriba ob‘ekti va uslubiyati.** Dala tajribalari Samarqand viloyati Paxtachi tumani “Sharofiddin yodgorlik dalasi” va Navoiy viloyati Karmana tumani “Lochin” fermer xo‘jaliklari dala maydonlarida 2020-2022 yillar davomida olib borildi. Samarqand viloyati tajriba dalasi viloyat markazidan 124 km sharqda 39918 shimoliy kenglikda, 65651 sharqiy uzunlikda dengiz sathidan 413 m balandlikda joylashgan. Navoiy viloyati tajriba dalasi viloyat markazidan 17 km sharqda 40033 shimoliy kenglikda, 65123 sharqiy uzunlikda dengiz sathidan 396 m balandlikda joylashgan. Tajriba dalalarining yeri - gumusi o‘rtacha, tipik sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproq, mexanik tarkibiga ko‘ra tuproq o‘rtacha qumoqli.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida soya o‘simligining mahalliy Ustoz-MMAAn-60, To‘maris-MMAAn-60, Oyjamol, xorijiy Rossiya seleksiyasiga mansub Selekt-201(nazorat) va Sparta, Qozog‘iston seleksiyasiga mansub Nena navlaridan foydalanildi.

**Tajriba natijalari va ularning muhokamasi.** Urug‘lik donning sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri uning absolyut vazni hisoblanadi[4.6.7.]. Tadqiqotlarimiz davomida muhim qimmatli xo‘jalik belgilaridan bir tup o‘simlikdagi umumiy don og‘irligi o‘rganildi. Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi mahalliy va xorijiy soya navlarida 2020 yilda nazorat variantiga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich mahalliy Oyjamol navida (mos ravishda  $239,81 \pm 1,16$  gr va  $241,01 \pm 1,16$  gr) va eng past ko‘rsatkich esa, Nena navida (mos ravishda  $61,79 \pm 1,04$  gr va  $62,95 \pm 1,05$ gr) aniqlandi (1-jadval).

**Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining bir tup o'simlikdagi umumiy don og'irligi ko'rsatkichlari, gramm**

**1-jadval**

<b>T/r</b>	<b>Mahalliy va xorijiy soya navlari</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
1	Selekta-201(nazorat)	81,78±1,29	83,02±1,28	73,4±1,36
2	Sparta	110,15±1,28	111,39±1,27	118,14±0,88
3	Nena	61,79±1,04	62,95±1,05	67,53±0,62
4	Oyjamol	239,81±1,16	241,01±1,16	270,41±1,37
5	Ustoz-MMAAn-60	83,61±0,51	84,92±0,5	93,63±2,09
6	To'maris-MMAAn-60	115,26±1,25	116,5±1,23	124,01±3,08

Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi mahalliy va xorijiy soya navlarida bir tup o'simlikdagi don og'irligi ko'rsatkichlari 2020-2022 yillar oralig'ida o'rganilganda, Samarqand va Navoiy viloyatlarida Sparta, Oyjamol va To'maris-MMAAn-60 soya navlari Nena, Ustoz-MMAAn-60 va Selekta-201(nazorat) navlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlandi[1,5.]. 2020-2022 yillar oralig'ida Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi soya navlarida bir tup o'simlikdagi don og'irligi ko'rsatkichlari Nena, Ustoz-MMAAn-60 va Selekta-201(nazorat) navlarida asosan 60 gr dan 95 gr gacha bo'lsa, Sparta, Oyjamol va To'maris-MMAAn-60 soya navlari esa 100 gr dan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi (2-jadval).

**Navoiy viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining bir tup o'simlikdagi umumiy don og'irligi ko'rsatkichlari, gramm**

**2-jadval**

<b>T/r</b>	<b>Mahalliy va xorijiy soya navlari</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
1	Selekta-201(nazorat)	67,13±1,05	68,62±1,04	71,71±0,99
2	Sparta	99,74±0,8	101,19±0,83	120,76±0,85
3	Nena	63,07±0,85	64,55±0,86	69,86±0,92
4	Oyjamol	160,8±3,5	162,26±3,53	310±0,91
5	Ustoz-MMAAn-60	82,94±1,78	84,37±1,77	92,43±1,1
6	To'maris-MMAAn-60	109,12±0,51	110,64±0,59	126,66±2,01

**Xulosa:**Samarqand viloyatida mahalliy To‘maris-MMAAn-60 va Ustoz-MMAAn-60 navlari hamda Navoiy viloyatida Sparta va Oyjamol navlarida nazorat va boshqa navlarga nisbatan bir tup o‘simlikdagi don vazni yuqori ekanligi qayd etildi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Kholikova M.A., Matniyazova K.Kh.and all. Morpho-economical Indicators of Some Local and Foreign Soybean Varieties Planted as Main Crops. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192 7319-7321b.
2. Kholikova M.A., Matniyazova K.Kh “Fertility indicators of some local and foreign soy Varieties planted as main crops”. Academic Research in Educational Sciences ISSN 2181-1385Volume 1, ISSUE 1September
3. Matniyazova H. Kh, Nabiyeu S. M, Abzalov M. F., Kholiqova M. A., Yuldashev O. “Some Physiological Indicators of Domestic and Foreign Soybean Varieties under Different Water Regimes”. International Journal of Science and Research (IJSR). ResearchGate Impact Factor SJIF Volume 8 Issue 9, September 2019. 389-392 bet.
4. Матниязова Ҳ.Х. Соя ва ғўзада турли сув режимида морфоҳўжалик ва физиологик белгилар бўйича “генотип - муҳит” ўзаро боғлиқлиги // Биология фанлари доктори диссертацияси. 2022. -Б.197-198.
5. Singh, G., 2010. //The Soybean: Botany, Production, and Uses//. CAB International, Oxfordshire, UK.-P.45-58.
6. Xoliqova M. A., Matniyazova H. H., Azimov A. A.. ”Takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning ayrim mahalliy va xorijiy navlarining morfoxo‘jalik ko‘rsatkichlari”. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. №3 (81) 2020 yil. 110-113bet.
7. Xolikova M.A. Takroriy ekin sifatida ekilayotgan soya navlarida fiziologik, biokimyoviy va morfo-xo‘jalik belgilarining namoyon bo‘lishi. Biologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi. 2024.-B.91-92